

BOLALARDA NUTQ VA TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH.

**Usmonova Surayyo Nizomiddinovna
Asaka pedagogika kolleji katta o’qituvchisi**

Annotatsiya: Maqolada mediasavodxonlik borasida fikr yuritilgan. Shuningdek, talabalarining nutq va tafakkurini rivojlantirishda medisavodxonlikni rivojlantirish, texnologiyalar rivojlanganligi bois, mediamatnlar bilan ishlash bo’yicha talabalar ijodkorligini ta’minlash kabi masalalar yoritilgan

Kalit so’zlar: mediamatn, mediasavodxonlik, axborot texnologiyalari, mediapedagoglar, kreativ, virtual

Talabalarining nutqi va tafakkurini rivojlantirishda hayotimiz mazmun-mohiyatiga aylanib borayotgan media, internet, televideniye, telefon va boshqa axborot texnologiyalari ham o’z ta’sirini ko’rsatmoqda. Mazkur holatni tajriba va kuzatishlarimiz asosida tahlil etadigan bo’lsak tabiiy holatda ijobiy va salbiy jihatlari ko’zga tashlanadi. Axborot texnologiyalardan foydalanish ko’nikmalarining ijobiy jihatlari e’tibor qaratadigan bo’lsak, mazkur texnologiyalar talabalarini mediamatnlarni qabul qilish, tahlil qilish, baholash va yaratish qobiliyatlarini shakllanishiga yordam beradi.

Masalaga ilmiy jihatdan yondashib “mediasavodxonlik” tushunchasining lug’aviy ma’nosiga diqqatimizni qaratsak. G’arb mediapedagoglari “mediasavodxonlik” (media literacy) tushunchasini quyidagicha izohlashadi:

“Mediasavodxonlik”-mediamatnlarni sharhlash, tahlil etish va yaratish qobiliyati “Mediasavodxonlik” - turli shakllardagi axborotlarni olish, tahlil etish, baholash va uzatish qobiliyati

“Mediasavodxonlik” – pedagog va talabalarda axborot texnologiyalari bilan muloqotda, ularning hayotidagi media mazmunini tushunishda tanqidiy nuqtai – nazar bilan qarashga yordam beradi. Mediasavodxon pedagog va talabalarda mediamatnlarga baho berishda tanqidiy va tahliliy yondashuvi, manipulyasiyaga qarshilik qilishga xizmat qilishi kerak

Uzluksiz ta’lim tizimini modernizatsiyalash sohasida amalga oshirilayotgan ishlar oliy ta’lim muassasalari o’quv-tarbiya jarayonini mediatexnologiyalar asosida tashkil etish, uning samaradorligini oshirish, oliy ta’lim muassasalari talabalariningnutqi va tafakkurini rivojlantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Tahlillarimiz asosida aytish o’rinliki, kreativ yondashuv asosida oliy ta’lim muassasalari talabalarining nutqi va tafakkurini rivojlantirishda mediatexnologiyalarning foydalanish masalasida o’z yechimini kutayotgan bir qator muammolar ko’zga tashlanadi. Birinchidan, mediatexnologiyalar asosida amalga oshiriladigan ta’limiy faoliyat samaradorligi talaba shaxsini pedagogik va psixologik jihatdan o’rganish ularning individual tipologik xususiyatlarini bilish bilan bog’liq. O’rganish maxsus dastur asosida tashkil etilishi va unda talaba shaxsining tarbiyasi va taqdiri omillari, insonlar bilan muloqot tajribasi, atrof-muhit, bo’layotgan voqea-hodisalarga, mehnatga munosabati, ichki va tashqi dunyosi, hatti-harakati, ongi va tafakkuri darajasi, axloq-odobi aks etishi lozim. U talaba shaxsining madaniyatida, idrok va tafakkurida, ehtiyojlarida, qiziqishlarida, xarakteri va temperamentida, odatlarida, fikrlash xususiyatlarida, muloqotida, munosabatida namoyon bo’ladi. Shundagina talabani qaysi guruhga mansubligi yoki maylini bilish va tarbiyaviy ta’sir yo’llarini aniqlash mumkin. Vaholanki, aksariyat oliy ta’lim muassasalari talabalarida maxsus dastur asosida faoliyat yuritayotganlari ko’zga tashlanmadi.

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

- kuzatuvlarimiz asosida aytish mumkinki, oliy ta’lim muassasalarida o’quv yili yakuniga yetganidan so’ng talaba guruhi bo’yicha o’tkazilgan monitoringga asosan amalga oshirilgan ishlar samaradorligi aniqlanadi, kutilayotgan natijalar bilan taqqoslash ishlari o’tkaziladi, muammolar, ularni hal qilish yo’llari hamda oliy ta’lim muassasalarining keyingi o’quv yiliga mo’ljallangan ustuvor vazifalari belgilanadi. Keyingi o’quv yiliga mo’ljallangan ustuvor vazifalarni belgilashda pedagoglarning amaliy kreativ harakat ko’nikmalarini rivojlantirish, kreativ faoliyat jarayonlarni tashkil etish va kreativ va ijodiy fikrlash, mushohada yuritishda mediasavodxonlik roli va o’rni benihoya samaralidir.

- fikrimizcha, bugungi kundagi texnik va ilmiy o’sish, bir tomondan, oliy ta’lim muassasalari talabalar turmush tarziga o’z ta’sirini ko’rsatayotgan bo’lsa, ikkinchi tomondan, aynan inson hayotiga bo’lgan yangi tahdidlarni keltirib chiqarmoqda (virtual borliqda yashash, psixologik jihatdan virtual borliqni afzal ko’rish, virtual tahdidlar v.b.). Shu nuqtai nazardan, oilada va oliy ta’lim muassasalarida talabalar nutqi va tafakkurini rivojlantirishga bo’lgan munosabat aslida milliy va mafkuraviy immunitetni shakllantirishning asosiy kategoriyasiga aylanib bormog’i darkor.

- mamlakatimizda oliy ta’lim muassasalari talabalari tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilayotganligi texnogen o’sish va globallashuv ta’siri talabalar g’oyaviy va huquqiy, ta’bir joiz bo’lsa texnik savodxonligini o’sishi bilan mushtarak holda kechadi. Bu muammo jamiyatimizda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy islohotlar amalga oshirilayotgan, yangilanish jarayoni kechayotgan hozirgi davrda, ayniqsa dolzarblik kasb etadi. Chunki olamshumul voqealarga boy, intellektual va axborot texnologiyalari rivoj topayotgan media ta’lim tizimi rivojlanayotgan, g’arb ommaviy axborot vositalaridagi axloqsizlik targ’iboti, o’zining demokratiya modelini olg’a siljitishning asl maqsad-muddalari bilan kirib kelayotgan hozirgi davrda shaxs mediasavodxonligini rivojlantirish yuqori darajadagi siyosiy madaniyatga ega bo’lish talab etiladi. Mediasavodxonlikni shakllantirishni esa talabalikdan boshlash maqsadga muvofiqdir.

Kuzatuvlarimiz natijasi shundan dalolat beradiki, tarbiyada noan’anaviy usullarga, pedagogik texnologiyaga, ijtimoiy pedagogika va psixologiyadagi ilg’or milliy hamda xalqaro tajribaga asoslanish, hayotdagi shaxsiy namuna, o’z faoliyatini rejalashtirish, sog’lom turmush tarzi qoidalariga rioya etish, ehtiyoj va imkoniyatning mosligi, natijani oldindan ko’ra bilgan holda maqsadni qo’yish, pedagogik mahorat va texnika muhim rol o’ynaydi.

Ilmiy manbalarda bayon etilganidek har bir pedagog psixolog bo’lishi, yoshlar qalbiga yo’l topa olishi, shuningdek zamon bilan hamnafas (talabalar dunyoqarashiga mos o’z ustida ishlashi) dunyoqarashini shakllantirishi, axloq qoidalariga monand yoki o’z mamlakatining talablariga tayangan holda ijtimoiy faol shaxs sifatida faoliyat yuritmog’i lozim.

O’rganishlar shundan dalolat beradiki, bu borada ba’zi o’ziga xos yechimini kutayotgan masalalar mavjud. Jumladan, oliy ta’lim muassasalarida “Nutq”, “Badiiy adabiyot”, “Ikkinchi til” ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish ma’lum bir qolib asosida tashkil etiladi. Bu yaxshi albatta. Biroq bugungi kun talabalarini “kechagi ma’lumot”, “qolibdagi xabarlar” bilan dunyoqarashini o’stirib bo’lmaydi. Vaholanki, kichik yoshidan boshlab kichikintoylarga axborot tahlili madaniyatini shakllantirish ijtimoiy – ma’naviy himoyasi uchun ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan har bir pedagog birdek mas’ul va javobgardir. Shuning uchun zamonaviy pedagog o’z kasbining mohir ustasi bo’lishi bilan bir qatorda, “psixolog”, “aktyor”, “san’atkor”, “texnolog” “ota-ona” bo’lishi, talabalar “dunyosiga” ham kirib bilishi ta’lim va tarbiya samaradorligini ta’minlashda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

- ta’lim muassasalarida axborot texnologiyalari asosida amalga oshiriladigan ta’limiy ishlarning samaradorligi talaba shaxsini pedagogik va psixologik jihatdan o’rganish ularning

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

individual tipologik xususiyatlarini bilish bilan bog‘liq. Shuningdek, axborot texnologiyalar vositasida tashkil etiladigan mashg‘ulotlar *tuzilishi jihatdan o‘qitish va o‘qish elementlaridan tarkib topgan bo‘lishi lozim. pedagog o‘z oldiga o‘qitish maqsadi, ta’lim tamoyillari, ta’lim qoidalari, ta’lim mazmuni, metodlari, didaktik ta’lim vositalaridan samarali foydalanish mexanizmlarini loyihalashtirib oladi.*

Fikrimizcha, kreativ yondashuv oliy ta’lim muassasalari talabalariningnutqi va tafakkurini rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etish va uzviyligini ta’minlashda mediatexnologiyalardan foydalanish, didaktik ta’lim vositalarini bir vaqtning o‘zida bir necha yo‘nalishlarda qo‘llash imkonini beradi. Ayni vaqtda “Apparatmatnlar” tizimi (videokitoblar, o‘quv diskleri, matnli albomlar va boshqalar)dan ommaviy ravishda foydalanilmoqda. Bu esa pedagoglarning o‘zaro muloqot va bahs munozara qilish imkoniyatini kengaytirishi bilan birga, o‘quv biluv faoliyati loyihalarini yaratishda pedagog-texnolog va metodistlarning kasbiy mahoratlarini oshirishga yordam beradi.

Foydalangan adabiyotlar.

1. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to‘plami, 2017yil, 6-son,70-modda.